

## “AVTOMOBIL TRANSPORTINING ATROF MUHITGA TA’SIRINI KAMAYTIRISH YECHIMLARINING TAHLILI”

*Yangiyeva Ismigul Ithomovna*

*Toshkent davlat transport universiteti*

*Avtomobil transport muhandisligi fakulteti*

*III bosqich talabasi*

**Anotatsiya:** Sanoat va transportdan yetkazilayotgan salbiy ta’sirini mumkin qadar kamaytirish, korxonalar va tashkilotlarda yirik tadbirlarni amalga oshirishga erishish va natijada atmosfera havosi sifat darajasini yaxshilashga erishish. atmosfera havosiga ifloslantiruvchi moddalar chiqarilishini 10 foizga kamaytirish (bunda 7% transportdan va 3% sanoatda); transport vositalarining 80 foizini gaz yoqilg’isi va boshqa muqobil energiyasida ishlashga o’tkazishni ta’minlash.

**Kalit so’zlar:** Ekologik monitoring, muqobil energiya, azot oksidi, is gazlari, ozon qatlami, “Evro-6”, “Evro-7”.

**Kirish;** Bugungi kunda O‘zbekistonda har yetti kishiga bittadan avtomobil to‘g‘ri keladi. Ya’ni, O‘zbekiston ko‘chalarida 4 milliondan ziyod mashina harakatlanayapti. avtomobilning foydasi bilan teppa-teng ziyoni ham borligidan ko‘z yumib bo‘lmaydi. Masalan, avtomobillardan chiqadigan zararli tutun atmosfera havosiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Bundan tashqari, avtomobil shovqini zararli tovushdir. O‘zbekistondagi yirik shaharlar aholisining 60 foizdan ortig‘i bugungi kunda xuddi shunday zararli shovqindan aziyat chekadi. Biz nafas oladigan havo - atmosferani tashkil etadigan qatlamlar har qaysisi o‘zining muayyan vazifasiga ega. Masalan, ozon qatlami barcha tirik organizmlarni nurlanishdan saqlaydi. Quyosh nurlari ta’sirida kislorod, azot oksidi va boshqa gazlar ishtirokida hosil bo‘lgan ozon kuchli ultrabinafsha nurlarni o‘ziga yutib, tirik organizmlarni uning salbiy ta’siridan himoya qiladi.

Avtomobillardan havoga chiqariladigan is gazlari ozonning yemirilishiga sabab bo‘ladi. Mutaxassislar hisob-kitobiga ko‘ra, havoni ifloslantiradigan asosiy antropogen omillar ro‘yxatida avtomobil transporti birinchi o‘rinni egallaydi. Ya’ni umumiy zararining 40 foizi Yer yuzida harakatlanayotgan avtomobillar hissasiga to‘g‘ri keladi. Qolgan zararining 20 foizi energetika sanoati, 14 foizi korxonalar va tashkilot ishlab chiqarishi, 26 foizi qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishi, maishiy kommunal xo‘jaligi va boshqa sohalardan yetkaziladi.

**Asosiy qism;** Respublikamizdagi mavjud kamchiliklar ishlab chiqarilayotgan yonilg'ilarning, shuningdek avtomobillarning bugungi kun sifat darajasiga kelmasligi, avtomobil yo'llarining bugungi kun zamonaviy talablarga mos kelmasligi, yirik avtomagistrallarda avtomatik tizimlarni qo'llagan holda havo sifatini monitoring qilish yo'lga qo'yilmaganligi, toksikligi va tutun qalinligini o'lchash asboblarning yetishmasligi kabilar e'tiborni tortadi. **Atmosfera havosiga chiqarilayotgan ifloslantiruvchi moddalar miqdori**

	<b>JAMI</b>	<b>TRANSPORT</b>	<b>SANOAT</b>
--	-------------	------------------	---------------

**2018**

<b>Respublika bo'yicha</b>	<b>2449,1</b>	<b>1560,3</b>	<b>888,7</b>
<b>Toshkent sh.</b>	<b>269,8</b>	<b>254,1</b>	<b>15,7</b>

**2019**

<b>Respublika bo'yicha</b>	<b>2534,6</b>	<b>1581,8</b>	<b>952,7</b>
<b>Toshkent sh.</b>	<b>390,5</b>	<b>316,0</b>	<b>74,5</b>

**Organik turdagi yoqilg'ini yonish natijasida ifloslantiruvchi moddalar, shuningdek bug'li gazlar hosil bo'ladi**

Asosiy ifloslantiruvchi moddalar	<b>CO, CH, NO<sub>x</sub>, SO<sub>2</sub>, al'degidlar, qattiq moddalar va boshqalar</b>
Bug'li gazlar tashlamalari	<b>CO<sub>2</sub>, CH<sub>4</sub></b>

Respublikamizda ishlab chiqarilayotgan yonil-g'ilarning, shuningdek avtomobillarning bugungi kun sifat darajasiga kelmasligi. Avtomobil yo'llarining bugungi kun zamonaviy talablarga mos kelmasligi. Yirik avtomagistrallarda avtomatik tizimlarni qo'llagan holda havo sifatini monitoring qilish yo'lga

qo'yilmaganligi. Toksikligi va tutun qalinligini o'lchash asboblarning yetishmasligi. O'rganish natijalariga ko'ra elektromobil transportini rivojlantirishdagi asosiy muammolar sifatida dunyoning sanoqli davlatlarida ishlab chiqarilishi, elektromobil tan narxining nisbatan qimmatligi, zaryadlash stansiyalarining kamligi, akkumulator batareyalarining zaryadlash vaqtining uzunligi, texnik xizmat ko'rsatish va servis xizmatlarining kamligi hisoblanadi.

#### **Atmosfera havosini muhofaza qilish yo'nalishda olib boriladigan tadbirlar**

1. Avtomobil parkini yangilanib borish
2. Ekologik darajasi "Evro-6" va "Evro-7" bo'lgan motor yonilg'isini ishlab chiqarishni ta'minlash
3. Shaharsozlik doirasida transport oqimi tarkibini, harakat tezligini rejimini optimallashtirish, yo'llarda avtomobil harakatini boshqarish tizimini rivojlantirish
4. Bosqichma-bosqich transportda muqobil energiya turlariga o'tishni ta'minlash
5. Yo'lovchi transporti harakati uchun alohida chiziqlar tashkil etish, avtotransportda davlat ekologik nazoratini profilaktika ishlarini yo'lga qo'yish bilan amalga oshirish.

**Xulosa;** Biz mukammal hayot tarzini qurar ekanmiz, oldimizdagi ulkan to'siqlar hamda muammolarni hal qilishimiz kerak. Zero, bizni ehtiyojlarimiz miqdori kelgusi avlod iste'moliga zarar yetkazmasin. Qachonki, tabiatni asrab avaylashni asosiy maqsad qilamiz, shundagina har birimiz o'zimiz istagan ekologik xavfsiz atrof-muhitda yashay olamiz. Shunday ekan, biz foydalanayotgan transport vositalari tashqi muhitga ta'sir qilishini oldini olish, zararsizlantirish va inson salomatligini muhofaza qilish kabi chora tadbirlarni ishlab chiqish lozim.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. <http://strategy.gov.uz/uz>
2. <http://www.lex.uz/index.aspx>
3. "Yashil iqtisodiyot" asosida barqaror rivojlanishni ta'minlash. Yangiyeva Ismigul Ilhomovna.